

“WEB – QUEST” DASTURIY VOSITASIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISH

Tohirova Sh.R.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda web-quest dasturiy vositasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va maqsadli ehtiyojlari haqida o'rgatish borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi, web-quest dasturi, media savodxonlik, interfaol ta'lim vositalari, ijodiy faollik, kasbiy kompetentlik.

Аннотация. В данной статье говорится об обучении будущих учителей английского языка особенностям и целенаправленной необходимости использования программного инструмента web-questa в развитии компетенции самостоятельного обучения.

Ключевые слова: компетентность самостоятельного обучения, программа веб-квестов, медиаграмотность, интерактивные образовательные средства, творческая деятельность, профессиональная компетентность.

Abstract. This article talks about teaching future English language teachers about the specific features and purposeful needs of using the web-quest software tool in the development of independent learning competence.

Key words: independent learning competence, web-quest program, media literacy, interactive educational tools, creative activity, professional competence.

Respublikamizda ingliz tilini o'rgatishga bo'lgan e'tibor va bu sohada amalga oshirilgan siyosiy islohotlar yoshlarimizni dunyoga tanitish va shu orqali, mamlakatimizni dunyo hamjamiyatida e'tirof etilishiga asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda, ingliz tili fani o'quv mazmunini ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar asosida zamonaviylashtirish, elektron pedagogik dasturiy vositalar yaratish va undan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili bo'yicha DTS va MT larga asosan talabalarning mustaqil ishi, ta'lim mazmuning asosiy komponenti hisoblanib, ta'lim oluvchi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida bilimlarni yanada chuqurlashtirish va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan qo'llaniladigan pedagogik ta'lim texnologiyalariga bog'liq. Bu an'anaviy texnologiyalar va ta'lim olish uchun cheksiz imkoniyatlar ochadigan zamonaviy texnologiyalar - kompyuter texnologiyalari bo'lishi mumkin.

Zamonaviy inson hayotida kompyuter kasbiy faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, so'ngi paytlarda ta'lim-tarbiya jarayonida mustahkam mavqega ega bo'lib bormoqda. Turli xil kompyuter mahsulotlari va texnik yangiliklar asosida yangi ta'lim texnologiyalari paydo bo'lmoqda, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) - qator didaktik afzalliklarga ega bo'lgan va talabalarning

bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan interfaol ta'lim vositalaridir. AKTdan foydalanish quyidagi ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga ko'maklashadi: talaba shaxsini rivojlantirish va mustaqil kasbiy ishga tayyorlash faoliyati; kasb-hunar maktablarida ta'lim jarayonini intensivlashtirish; zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan belgilangan ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish [3].

Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, bo'lajak mutaxassislar tayyorlashning ilg'or yo'nalishlari bitiruvchilarda quyidagilarni ta'minlashi kerak: axborot madaniyati; ijodiy faollik; kasbiy kompetentlik; yuqori darajadagi xulq-atvor. Shu bilan birga fan, texnika, iqtisodiyot va ishlab chiqarishda axborot jarayonini intensivlashtirish va joriy etish ta'limda: yangi modelni ishlab chiqishni; turli axborot ta'lim muhitlarini yaratishni; AKT dan keng foydalanishni talab etmoqda.

Ta'limning yangi paradigmasini yaratishdan maqsad - O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos, davr talabiga javob beradigan tanqidiy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalaydigan va o'qitadigan sharoitlarni ta'minlashdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat talabalarning ijodiy salohiyatini ochib berish va rivojlantirish, ularning bilish jarayonlarini faollashtirish manbai, balki axborot ko'nikmalarini shakllantirish orqali insonning umumiy madaniyatini takomillashtirish vositasi hamdir. Ta'lim tizimini faol axborotlashtirish va ta'lim jarayonida global internetdan foydalanishni kengaytirish ushbu muammolarni hal etishda ko'maklashadi.

Xozirgi zamon talabalari mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot ishlari ustida ishlashda yangi texnologiyalardan faol foydalanmoqda. Internet ko'plab axborot resurslarini o'z ichiga oladi, bu nafaqat yangi ta'lim imkoniyatlarini ochib beradi, balki axborotdan foydalanish ko'nikma va malakalarini ham rivojlantiradi. Internetdan olingan ma'lumotlar bilan ishlash, uni tizimlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi, tahlil qilish va tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. So'nggi yillarda chet tillarini o'rganayotgan talabalar nafaqat internetning ulkan resurs bazasidan foydalanish, balki ularning ijodiy salohiyatini ochib berish imkoniyatini beruvchi AKT web - questlaridan foydalanish bilan bog'liq axborot va tadqiqot vazifalariga juda qiziqib qolishdi.



Web - quest "talabalar internetda ma'lumotlarni belgilangan manzillarda izlashlari uchun mustaqil tadqiqot faoliyatining maxsus tashkil etilgan turi" deb

ataladi [4]. Faoliyatning bu turi talabalarning mustaqil ishlashi uchun vaqtdan oqilona foydalanish, ta'lim jarayonida zarur xilma-xil axborot va undan qanday foydalanishni tez topa olish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotlarni tahlil qilish, sintez qilish va baholashni ta'minlaydi. Bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyalash va nazorat qilishning bu usuli ta'lim muhitining zamonaviy talablari va xususiyatlariga javob beradi. U 1995 yili San Diyeogo davlat universiteti professorlari Berni Dodj va Tom March tomonlaridan ishlab chiqilgan. Ushbu yangi usul o'qituvchilar orasida tezda ommalashdi.

Chet tili o'qituvchisi grammatik yoki leksik mavzuni ishlab chiqish uchun web - questdan foydalanishi mumkin - o'qituvchi shunchaki talabalar uchun syujet va rollarni o'ylab topishi, o'yinning har bir roli uchun ish rejasi va vazifalarni belgilashi, yakuniy natijani aniqlashi, har bir talabaning mustaqil ishi natijasi va topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan mavzu bo'yicha veb-sayt manzillariga havolalarni tanlashi zarur.

Albatta, web - questni, shuningdek, ta'lim kvestini tayyorlash uchun ko'p kuch va vaqt kerak bo'ladi, ammo natija bunga arziydi: Talabalar nafaqat o'rganilgan materialni birlashtira oladilar, balki internetdagi xatti-harakatlar qoidalarini ham o'rganadilar. Chet tili darslarida web - quest, o'qituvchi nimaga duch kelishidan qat'iy nazar, har qanday maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Web - questlarni ishlab chiqish texnologiyasi murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchining ko'p vaqtini, kuch-g'ayratini va energiyasini talab qiladi, u vazifalarni yaratish uchun ma'lum mavzu bo'yicha internet resurslaridan keng miqyosdagi axborotni qo'llaydi. Boshqa tomondan, mustaqil ishning bu turidagi faoliyatida talaba jamoada yoki yakka tartibda ishlashidan qat'iy nazar, topshiriqni bajarish uchun eng qulay sur'atni tanlashi mumkin. Qolaversa, talabalarga mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish imkoniyati beriladi, lekin o'qituvchi tomonidan belgilangan ma'lum chegaralar doirasidagina, xolos. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi tasdiqlanmagan, noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini istisno qilish uchun saytlarni oldindan tanlaydi. O'qituvchi ma'lumotlarni ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan nuqtayi nazardan baholab, internet resurslarini tanlab olishi, talabalarning til tayyorgarligining turli darajalariga e'tibor qaratishi lozim. Web - questlarning keng tarqalgan shakllari quyidagilardan iborat: talabalar tomonidan ilgari surilgan savol va javoblar orqali; mashhur shaxslar bilan intervyular; talabalar giperhavolalar yordamida ishlashlari uchun ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lumotlar bazasi, yoki "virtual dunyo" yaratish.

Web - questlar o'z shartlariga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Qisqa muddatli loyihalarning maqsadi - bilim olish va uni sizning bilim tizimingizga kiritishdir. Web - questning bu turi bo'yicha ish bir sessiyadan uch sessiyagacha bo'ladi. Uzoq muddatli loyihalar tushunchalarni kengaytirish va ularni izohlashga qaratilgan. Bunday web - quest ishlari yakunida talaba olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, uni o'zgartira olishi kerak. Uzoq muddatli web - quest ustida ishlash bir haftadan bir oygacha davom etishi mumkin. Web -

questlarni veb-saytga joylashtirish va ma'lum bir topshiriqni bajarishda talaba o'zi harakat qiladigan rolni tanlash, talabalarning yanada sifatliroq o'quv natijalariga erishish motivatsiyasini oshirishga imkon beradi. Web - questni rejalashtirishda muhim nuqta talabalar tomonidan bajarilgan topshiriq - natijalarini baholashdir. Chet tilini o'rgatishda asosiy vazifa nafaqat til bilimlarini baholash, balki muloqot ko'nikmalarini ham hisobga olish imkonini beruvchi bir qator mezonlar mavjud.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "sen buni o'qishing va bilishing kerak" deya ko'p takrorlanuvchi da'vatlardan ko'ra, "Menga bu zarur va men buni albatta o'rganishim, hayotim davomida undan foydalanishim kerak" degan fikr samaradorligi sezilarli darajada yuqori. Buning effektivlik darajasi esa ularda o'qish va mehnatga layoqatliligini oshganligida, individual rivojlanish darajasi tez sur'atda o'sganligida, o'qishni bitirgach ish bilan ta'minlanishda muammolarga duch kelmasligida, intellektual raqobatning kuchayganligida, g'oyalarning xilma-xil va rang-barangligida namoyon bo'lmoqda. Web - quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning yana bir afzallik jihati shundaki, unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalariga murojaat qilish, shu asosida kompyuter hamda informatsion texnologiyalar bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish o'z-o'zidan amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib axborot tezligi maksimal darajaga yetgan bo'lib, global tarmoqdan istalgan ma'lumotni bir necha soniyada, istalgan (matnli, grafikli, rasmlil, audio va video) ko'rinishda qabul qilish, saqlash, foydalanish va o'zgartirish mumkin. Bu esa o'z ustida ishlayotgan har bir bo'lajak o'qituvchiga izlanishdan to'xtab qolmasligi uchun yangi fikrlar va g'oyalar beradi.

Pedagogik texnologiya sifatida kvest - bu aniq belgilangan maqsadlarga ega bo'lgan o'quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va o'tkazish, joriy va yakuniy natijalarni taxlil qilish uchun barcha tafsilotlari bilan puxta o'ylangan qo'shma pedagogik faoliyat modeli bo'lib, u alohida protsessual xususiyatlarga ega.

Pedagogik texnologiyaning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, kvest ta'lim va tarbiya maqsadlarini aniq, izchil pedagogik didaktik ishlab chiqishni nazarda tutadi; o'zlashtiriladigan ma'lumotlarni tizimlashtirish, tartiblash, birlashtirish; o'qitish va nazorat qilishning didaktik, texnik va kompyuter vositalarini kompleks qo'llash; ta'limning diagnostik funksiyalarini kuchaytirish; ta'lim sifatining etarlicha yuqori darajasini kafolatlash.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasini ta'kidlab, web - questlarning xarakterli xususiyatlarini ochishga o'tamiz.

Xorijiy va mahalliy o'qituvchilar uzoq vaqtdan beri bunday faoliyatni "kvest" deb atamasdan, kvestlardan foydalanishgan. Masalan, E. S. Polat "Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari" darsligida E. Rojersning telekommunikatsiya loyihasi "Oyni kuzatish loyihasi"ni misol qilib keltiradi. Loyiha 8-9-sinf o'quvchilari uchun matematikadan ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, loyiha muallifining o'zi ham matematik emasligini, o'quvchilarga o'zi qo'ygan vazifa uchun tayyor algoritmnini taklif qila olmasligini ta'kidlaydi. Shuning uchun u o'quvchilar

3. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilik ijodkoplignini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (mehnat va kasb ta'limi fakultetlari misolida): Diss.. ped.fan.nom. – T., 2000. – 205 b.
4. Шаповалова М. Г. Веб-квест-технологии как одно из условий реализации деятельностного подхода в обуче-нии информатике // Информационные технологии в образовании : конгресс-конференция. 23-24. 11. 2010. URL: <http://ito.edu.ru/2010/Rostov/I/3/I-3-7.Html>.
5. Hamdamov U.E. Technology of web quest in the organization of independent study .// International scientific – practical conference on the topic “Perspectives of philology and practical possibilities of teaching foreign languages. Gulistan. May 10-11, 2023.